

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY ADAPTIVLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Po'latova Iroda Obid qizi,**  
Samarqand davlat pedagogika instituti  
1-bosqich doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak pedagoglarning zamonaviy ta'lim muhitiga samarali moslashishini ta'minlovchi omillarni aniqlash hamda kasbiy adaptivlikni shakllantirishning samarali mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar, mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar natijasida kasbiy adaptivlikning tarkibiy komponentlari, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali yo'nalishlari aniqlashtirildi. Shuningdek, interaktiv ta'lim metodlari, reflektiv yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarning kasbiy adaptivlikni rivojlantirishdagi o'rni yoritildi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish va ularning zamonaviy ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy adaptivlik, kognitiv moslashuvchanlik, emotsional intellekt, reflektiv yondashuv, interaktiv metodlar, pedagogik amaliyot, oliy pedagogik ta'lim, proaktivlik.

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of developing professional adaptability skills in pre-service teachers studying at higher pedagogical educational institutions. The purpose of the study is to identify the factors that ensure the effective adaptation of future teachers to the modern educational environment and to substantiate effective mechanisms for the formation of professional adaptability. In the course of the research, scientific and pedagogical literature related to the topic, as well as the views of local and foreign scholars, were comparatively analyzed. The analysis made it possible to clarify the structural components of professional adaptability, the pedagogical and psychological factors influencing its development, and effective directions for improving the professional training of future teachers. In addition, the role of interactive teaching methods, reflective approaches, and innovative pedagogical technologies in the development of professional adaptability is highlighted. The findings of the study provide a theoretical basis for developing scientific and practical recommendations aimed at enhancing the professional competence of future teachers and ensuring their successful adaptation to the contemporary educational environment.

**Keywords:** professional adaptability, cognitive flexibility, emotional intelligence, reflective approach, interactive methods, pedagogical practice, higher pedagogical education, proactivity.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы педагогические и психологические особенности развития навыков профессиональной адаптивности у будущих учителей, обучающихся в высших педагогических образовательных учреждениях. Цель исследования заключается в выявлении факторов, обеспечивающих эффективную адаптацию будущих педагогов к современной образовательной среде, а также в обосновании эффективных механизмов формирования профессиональной адаптивности. В процессе исследования был проведён сравнительный анализ научно-педагогической и психологической литературы по теме, а также научных взглядов отечественных и зарубежных учёных. В результате анализа были уточнены структурные компоненты профессиональной адаптивности, педагогические и психологические факторы, влияющие на её формирование, а также эффективные направления совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей. Кроме того, раскрыта роль интерактивных методов обучения, рефлексивного подхода и инновационных педагогических технологий в развитии профессиональной адаптивности. Результаты исследования служат

*теоретической основой для разработки научно-практических рекомендаций, направленных на повышение профессиональной компетентности будущих педагогов и обеспечение их успешной адаптации к современной образовательной среде.*

*Ключевые слова: профессиональная адаптивность, когнитивная гибкость, эмоциональный интеллект, рефлексивный подход, интерактивные методы, педагогическая практика, высшее педагогическое образование, проактивность.*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining globallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda ta'lim mazmunining muntazam yangilanib borishi pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, balki tez o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslasha olish, innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llash va turli pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilish ham talab etiladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik faoliyat o'zining murakkabligi va doimiy o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi hamda dinamik va noaniq ta'lim muhitida kechadi. Shu sababli o'qituvchining yangi, kutilmagan va tez o'zgarib boruvchi pedagogik vaziyatlarga samarali moslasha olishi uning kasbiy muvaffaqiyati va faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu qobiliyat **adaptivlik** tushunchasi bilan ifodalanib, u shaxsning yangi, o'zgaruvchan yoki noaniq vaziyatlarga mos ravishda o'z fikrlari, hissiyotlari va xulq-atvorini qayta tashkil eta olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi (Martin et al., 2012).

Martin va hamkorlari (2012) tomonidan ishlab chiqilgan uch komponentli modelga ko'ra, adaptivlik kognitiv, xulq-atvor (behavioral) va emotsional komponentlardan tashkil topadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, shaxs murakkab, yangi yoki noaniq vaziyatlarga duch kelganda, kognitiv adaptivlik vaziyatni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, mavjud muammoga nisbatan qarashlarni qayta ko'rib chiqish hamda yangi yechimlarni izlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xulq-atvor adaptivligi esa o'zgarayotgan sharoitlarga mos ravishda faoliyat usullari va harakat strategiyalarini o'zgartirishni nazarda tutadi. Emotsional adaptivlik esa noaniqlik va yangiliklar bilan bog'liq salbiy hissiyotlarni, xususan xavotir va stressni kamaytirish hamda umid, ishonch va motivatsiya kabi ijobiy emotsiyalarni kuchaytirish qobiliyatini o'z ichiga oladi (Martin et al., 2012).

Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik faoliyat davomida o'qituvchi turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash, ta'lim texnologiyalaridagi yangiliklarni o'zlashtirish, kutilmagan pedagogik muammolarni hal etish hamda ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari bilan samarali muloqot o'rnatish zarurati bilan muntazam ravishda to'qnash keladi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning adaptivlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy adaptivlikning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati qator empirik tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topgan. Xususan, Collie va Martin (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari adaptivlik darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar kasbiy faoliyat jarayonida yuqoriroq psixologik farovonlikka ega bo'lishi va ta'lim muassasasiga nisbatan kuchliroq tashkiliy sodiqlikni namoyon etishini ko'rsatgan. Tadqiqotda, shuningdek, o'qituvchilarning adaptivligi ularning psixologik holatini yaxshilash orqali o'quvchilarning akademik natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Keyingi izlanishlarda Collie va hamkorlari (2018) adaptiv pedagoglar kasbiy faoliyat davomida ishga nisbatan befarqlik va kasbiy uzoqlashuv holatlariga kamroq moyillik bildirishlarini qayd etganlar. Bundan tashqari, Loughland va Alonzo (2019) o'z tadqiqotlarida adaptivlik darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasini hisobga olgan holda moslashuvchan pedagogik strategiyalardan samarali foydalanishlarini ta'kidlaydilar. Mazkur ilmiy natijalar adaptivlikning nafaqat o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, balki ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari adaptivlikning zamonaviy pedagog faoliyatidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kasbiy adaptivlik pedagogning professional kompetentligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotchilar kasbiy adaptivlikning rivojlanishi pedagogning refleksiv fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, kommunikativ kompetentligi hamda innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlarga moslashuvchan munosabat bildira olishi, yangi pedagogik vaziyatlarga samarali yechim topishi va kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil eta olishi ularning kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kasbiy adaptivlikning mazkur jihatlari uni bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivligini rivojlantirish nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy faoliyatga tayyorlash, mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularga samarali yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, refleksiv yondashuvlar, muammoli ta'lim texnologiyalari hamda amaliy mashg'ulotlardan samarali foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri

hisoblanadi. Shu bois mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, adaptivlikning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda uni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini asoslash maqsad qilib qo'yilgan.

**Metodlar.** Ushbu tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tizimli va qiyosiy-analitik metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotda real empirik sinovlar yoki ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilmagan bo'lib, xulosalar mavjud ilmiy-nazariy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali shakllantirildi.

Tadqiqot vazifalarini hal etishda quyidagi ilmiy-metodologik usullar majmuasi qo'llanilgan:

**Qiyosiy-kichik tahlil (Comparative Analysis):** Kasbiy adaptivlik va pedagogik moslashuvchanlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro (Martin et al., 2012; Collie & Martin, 2017) va mahalliy olimlarning konseptual qarashlari o'zaro qiyoslandi hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

**Tizimli-strukturaviy yondashuv:** Kasbiy adaptivlik hodisasi pedagog shaxsining yaxlit xususiyati sifatida qaralib, uning ichki tuzilishi kognitiv, xulq-atvor va emotsional komponentlarga ajratilgan holda, har bir elementning funksional vazifalari differensializatsiya qilindi.

**Abstraktlashtirish va pedagogik modellashtirish:** Adabiyotlar tahlilidan olingan nazariy xulosalar umumlashtirilib, oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kasbiy adaptivligini oshirishga xizmat qiluvchi interaktiv va reflektiv mexanizmlarning nazariy-metodologik modeli ishlab chiqildi.

**Natijalar.** Mavzuga oid ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko'nikmalarini shakllantirishning konseptual modeli va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy adaptivligi quyidagi o'zaro bog'liq uchta tarkibiy komponent tizimidan iborat bo'ladi:

1. **Kognitiv komponent:** O'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarni, maktab muhitidagi yangiliklarni va kutilmagan muammolarni ko'p variantli tahlil qila olish hamda intellektual moslashuvchanlik (intellectual flexibility) ko'nikmasi.

2. **Xulq-atvor (faoliyatli) komponenti:** Pedagogik faoliyat usullarini, dars ssenariylarini va qo'llanilayotgan metodikalarni real vaqt rejimida, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda tezkor o'zgartira olish qobiliyati.

3. **Emotsional komponent:** Yangilik, noaniqlik va qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan salbiy hissiyotlarni (xavotir, stress, charchoq) kamaytirish hamda emotsional intellekt (EQ) orqali ichki motivatsiyani barqaror saqlash xususiyati.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarning sintezi shuni ko'rsatdiki, ushbu komponentlarni rivojlantirish an'anaviy dars shakllari orqali amalga oshmaydi. Oliy ta'lim o'quv jarayonida kasbiy adaptivlikni shakllantirish uchun **uchta konseptual yo'nalish (mexanizm)** nazariy jihatdan asoslab berildi:

1. **Interaktiv-metodik yo'nalish:** Talabalarni dars davomida muammoli vaziyatlar va keys-stadi texnologiyalari bilan faol to'qnashtirish.

2. **Refleksiv-shaxsiy yo'nalish:** O'quv va amaliyot jarayonida talabalarning o'z-o'zini xolis tahlil qilish (refleksiya) madaniyatini shakllantirish.

3. **Innovatsion-texnologik yo'nalish:** Bo'lajak o'qituvchining metodik tizimini raqamli va virtual ta'lim muhitiga moslashuvchan holatga keltirish.

**Munozara.** Xalqaro miqyosda adaptivlik konsepsiyasi, asosan, Martin va hamkorlari (2012) hamda Loughland va Alonzo (2019) tomonidan amaliyotchi o'qituvchilarning ish faoliyatidagi barqarorligini o'rganish misolida tadqiq etilgan. Biroq, bizning nazariy tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, ushbu ko'nikmani yosh mutaxassis maktabga borgandan keyin emas, balki oliy ta'lim bosqichidayoq proaktiv (oldindan shakllangan) tarzda rivojlantirish lozim.

Ushbu yondashuv mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarida ham o'zining konseptual aksini topgan. Xususan, akademik R.X.Djurayev pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash muammolariga to'xtalib, shunday yozadi:

*"Zamonaviy o'qituvchi tayyorlash tizimi talabani faqatgina tayyor dars andozalari bilan qurollantirmasligi kerak. Haqiqiy professional mahorat yosh mutaxassisning nostandart va keskin o'zgaruvchan pedagogik muhitda mustaqil va optimal qaror qabul qila olish qobiliyatida namoyon bo'ladi"* (Djurayev, 2021).

Bu fikr kasbiy adaptivlikning kognitiv va xulq-atvor komponentlari talabada oliy ta'lim muhitidayoq shakllanishi kerakligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, adaptivlik talabaning ichki refleksiv pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Professor E.G'.G'oziyev talabalarning kasbiy kamolot qonuniyatlarini tahlil qilar ekan, o'z-o'zini idora etish va refleksiya mexanizmlariga alohida urg'u bergan:

*"Bo'lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishi uning o'z faoliyatini subyekt sifatida anglashidan boshlanadi. O'z-o'zini anglash va refleksiv tahlil talabada kasbiy qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan psixologik tayyorgarlikni yuzaga keltiradi"* (G'oziyev, 2011).

Bundan tashqari, N.S.Safarov (2019) va B.R.Qodirov (2016) kabi mahalliy tadqiqotchilarning kasbiy moslashuv determinellariga oid ishlariga tayanib aytish mumkinki, talabalarda faoliyatni ichki refleksiv tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytirish ularning emotsional adaptivligini oshiradi, ya'ni yangi sharoitga kirishishda yuzaga keladigan xavotirlilik darajasini pasaytirib, stressga chidamlilikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili asosida ilgari surilgan ilmiy yangiligimiz shundan iboratki, kasbiy adaptivlik — bu shunchaki tashqi sharoitga bo‘ysunish (passiv moslashish) emas, balki bo‘ljak o‘qituvchining **metodik moslashuvchanligi (methodological flexibility)** va **refleksiv proaktivligi** orqali ta‘lim muhitini ijobiy tomonga transformatsiya qila olish qobiliyatidir.

**Xulosa va Tavsiyalar.** Oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘ljak o‘qituvchilarning kasbiy adaptivlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

1. **Tizimli mohiyat:** Kasbiy adaptivlik faqatgina metodik bilimlar yig‘indisi bo‘lmay, kognitiv egiluvchanlik, emotsional barqarorlik va refleksiv faoliyatning sintezidan iborat murakkab professional-shaxsiy xususiyatdir.

2. **O‘quv dasturlariga o‘zgartirish kiritish:** Pedagogika va psixologiya fanlarining seminar hamda amaliy mashg‘ulotlari mazmuniga talabalarda kutilmagan va nostandart ta‘limiy vaziyatlarni boshqarish strategiyalarini shakllantiruvchi **“Pedagogik proaktivlik va kasbiy adaptivlik”** maxsus trening modullarini joriy etish zarur.

3. **Amaliyot tizimini refleksiv transformatsiya qilish:** Pedagogik amaliyot (praktika) jarayonida talabalarning faqat statik hisobotlar yozishi o‘rniga, xorijiy tajribadagi *hansei* tizimiga hamohang bo‘lgan, dars jarayonidagi muammolar va ularning adaptiv yechimlarini qayd etib boruvchi **“Refleksiv kundaliklar”** tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

4. **Simulyatsion vaziyatlarni modellashtirish:** Auditoriya mashg‘ulotlarida (mikro-o‘qitish shaklida) talabalarga to‘satdan o‘zgaruvchan shartlarni (masalan, texnik vositalarning ishlamay qolishi yoki o‘quvchilarning darsga tayyor bo‘lmasligi) simulyatsiya qilish orqali ularda real vaqt rejimida muqobil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Ushbu nazariy-metodologik tavsiyalar bo‘ljak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va ularning zamonaviy dinamik ta‘lim muhitiga inqirozlarsiz muvaffaqiyatli moslashishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Collie, R.J., Granziera, H. & Martin, A.J. (2018). Teachers’ perceived autonomy support and adaptability: An investigation employing the job demands-resources model as relevant to workplace exhaustion, disengagement, and commitment. *Teaching and Teacher Education*, 74, 125–136. doi:10.1016/j.tate.2018.04.015
2. Collie, R.J. & Martin, A.M. (2017). Teachers’ sense of adaptability: Examining links with perceived autonomy support, teachers’ psychological functioning, and students’ numeracy achievement. *Learning and Individual Differences*, 55, 29–39. doi:10.1016/j.lindif.2017.03.003
3. Djurayev, R. X. (2021). *Zamonaviy pedagogik ta‘limning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari*. Toshkent: Fan.
4. Loughland, T. & Alonzo, D. (2019). Teacher adaptive practices: Examining links with teacher self-efficacy, perceived autonomy support and teachers’ sense of adaptability. *Educational Practice and Theory*, 40(2), 55–70. doi:10.7459/ept/40.2.0

5. Martin, A.J., Nejad, H., Colmar, S. & Liem, G.A.D. (2012). Adaptability: Conceptual and empirical perspectives on responses to change, novelty and uncertainty. *Australian Journal of Guidance and Counselling*, 22(1), 58–81. doi:10.1017/jgc.2012.8.
6. Qodirov, B. R. (2016). *Shaxsning kasbiy moslashuvchanligi va uning psixodiagnostikasi*. Samarqand: SDUI nashriyoti.
7. Safarov, N. S. (2019). *Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologik determinantanti*. Toshkent: Niso Poligraf.
8. G'oziyev, E. G'. (2011). *Muomala psixologiyasi va kasbiy kamolot*. Toshkent: Universitet.

